


(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-avgust oyida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yil yanvar-avgust oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 397,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,8 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (33,0 %), moliyaviy xizmatlar (17,6 %), transport xizmatlari (18,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,0 %) ustunlikka ega.





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-avgust oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajm, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	5 397,0	100,8
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	325,7	111,0
Moliyaviy xizmatlar	950,0	129,5
Transport xizmatlari	974,8	96,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari		
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	101,8	81,6
Savdo xizmatlari	1 781,5	97,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	139,2	90,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	241,8	115,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	97,9	78,7
Ijara xizmatlari	116,8	105,9
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	133,0	92,4
Shaxsiy xizmatlar	915,6	88,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	82,0	63,3
Boshqa xizmatlar	136,6	95,2




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (129,5 %), Ta'lim xizmatlari (115,9 %), Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,0 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2020- yil yanvar-avgust oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 578,6 mlrd. so'mga oshdi.

2020- yil yanvar-avgust oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)


2020- yil yanvar-avgust oyida o'tgan yilga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (204,1 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (64,2 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar-avgust oyida moliyaviy xizmatlari 303,7mlrd. so'm, savdo xizmatlari 223,7 mlrd. so'm, transport xizmatlar 111,9 mlrd. so'mga oshgan.



(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-avgust oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (63,3 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (78,7 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (81,6 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2020- yil yanvar-avgust oyida uning ulushi 33,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni, transport xizmatlari (18,1 %), moliyaviy xizmatlari (17,6 %) egalladi.

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)


Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

2020- yil yanvar-avgust oyida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %

Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (93,0 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 6,7 % ni tashkil qiladi.


Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.



(dastlabki ma'lumotlar)

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2020- yil yanvar-avgust oyida uning ulushi 78,0 % ni tashkil etadi.



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 16,6 % ga yetdi.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,4 % ni egallaydi.



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-avgust oyida aloqa va axborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (97,4 %) egallaydi.

Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 1,9 % ni tashkil qiladi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi 2020 yil yanvar-avgust oyi, %

Telekommunikasiya xizmati - 97,4 %

Nashriyotchilik xizmati - 1,9 %

Axborot sohasidagi xizmatlar - 0,3 %


Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati - 0,3 %

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati - 0,1 %

(dastlabki ma'lumotlar)

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

2020- yil yanvar-avgust oyida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




2020- yil yanvar-avgust oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 950,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 129,5 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (133,0 %) tashkil etadi.

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yilning yanvar-avgust oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 101,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2019- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan o'sish sur'atlari 81,6 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 1,9 % ga yetdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 83,3 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 16,7 % ga to'g'ri keladi.




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-avgust oyida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm

2020- yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1 911,9 ming. so'mga teng bo'ldi. 2019- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 169,1 ming so'mga oshdi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28